

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

SPECIFIC FEATURES OF PROMOTING HUMAN DIGNITY IN THE TRADE UNION SYSTEM

Khamidjon Sayidovich Beshimov

Deputy Chairman of the Bukhara Regional Council of the Federation of Trade Unions of Uzbekistan, Independent Researcher of Bukhara State University.

Abstract. In this work, the peculiarities of raising human value in the system of trade unions are analyzed from a philosophical and socio-political point of view. Through the work of trade unions, the issues of protecting the rights and interests of the working person, ensuring social justice, improving working conditions and raising the dignity of the individual are highlighted. The role of trade unions in the decision-making of collective bargaining, social partnerships, legal guarantees and spiritual and moral values is also revealed. In the context of existing reforms, the manifestation of trade unions as an effective institution of ensuring human value is scientifically substantiated.

Keywords: profession of a lawyer, a person of dignity, work on human rights, social protection, social justice, negotiator, negotiator, social analyst, working conditions, guarantor of law, lawyer.

KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Beshimov Xamidjon Sayidovich

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashi raisi o'rinbosari, Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: beshimovhamid@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning o'ziga xos xususiyatlari falsafiy va ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Kasaba uyushmalari faoliyati orqali mehnat qiluvchi insonning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda shaxs qadr-qimmatini yuksaltirish masalalari yoritib beriladi. Shuningdek, jamoaviy muzokaralar, ijtimoiy sheriklik, huquqiy kafolatlar va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni qaror toptirishda kasaba uyushmalarining o'rni ochib beriladi. Mavjud islohotlar sharoitida kasaba uyushmalari inson qadrini ta'minlashning samarali instituti sifatida namoyon bo'lishi ilmiy asoslanadi.

Kalit so'zlar: kasaba uyushmalari, inson qadri, mehnat huquqlari, ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat, jamoaviy muzokaralar, jamoa shartnomalari, ijtimoiy sheriklik, mehnat sharoitlari, huquqiy kafolatlar, fuqarolik jamiyati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N17>

Olimlar, soha faxriylari va faollari tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar yurtimizda kasaba uyushmalari harakatiga 1905-yilda asos solinganini isbotladi. Shu bois, 2025-yil butun mamlakatimiz bo'ylab, kasaba uyushmalari harakatining 120 yillik yubileyi keng nishonlanmoqda. [1; 10 b]

Barchamiz yaxshi tushunamizki, Yangi O'zbekiston – avvalo, inson hayoti, uning salomatligi, huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini qonun asosida ishonchli himoya qilinadigan davlat degani. [1; 10 b]

Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy: "Biz o'z hayotimizni o'zgartirmoqchi bo'lsak, avvalo, odamlarning haq-huquqini tan olishni o'rganishimiz kerak", degan edi.

Bu – haq gap. Chindan ham, huquq va erkinliklar ta'minlangan, odamlari emin-erkin yashab, mehnat qilib, daromad topadigan mamlakatda davlat ham, jamiyat ham albatta rivojlanadi. Shu bois, biz islohotlarni boshlagan ilk kunlardan "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyani amalga oshirish uchun, avvalo, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik[1; 2-3 b].

Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirish masalasi jamiyatda ijtimoiy adolat, iqtisodiy tenglik va demokratik jarayonlarni ta'minlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki inson qadri, uning sha'ni va huquqlarini ta'minlash davlat siyosati va fuqarolik jamiyatining asosiy ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, kasaba uyushmalari bu jarayonda ko'prik vazifasini bajaradi. Ular mehnatkashlarning huquqlarini himoya qilish, ish haqi, mehnat sharoiti, ijtimoiy kafolatlar va inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat yuritadi. Shu jihatdan kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirish nafaqat mehnat munosabatlari doirasida, balki keng ma'noda ijtimoiy hayotning turli sohalarida ham amalga oshadi.

Kasaba uyushmalari tarixiy jarayonda fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida shakllanib kelgan. Ular avvalo ishchi-xodimlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan boshlangan bo'lsada, vaqt o'tishi bilan keng qamrovli ijtimoiy va ma'naviy funksiyalarni bajaruvchi tizimga aylandi. Inson qadrini yuksaltirishdagi o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, kasaba uyushmalari inson manfaatlarini yakka tartibda emas, balki jamoaviy shaklda himoya qiladi. Bu esa shaxsiy qadr va sha'nini jamiyatning umumiy qadriyatlari tizimida mustahkamlaydi.

Inson qadrini yuksaltirish deganda, avvalo insonning mehnatiga munosib baho berish, uning mehnat sharoitlarini yaxshilash, adolatli ish haqi va ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlash tushuniladi. Kasaba uyushmalari aynan shu masalalarda asosiy sub'ekt hisoblanadi. Chunki mehnat bozorida ish beruvchi va ishchi o'rtasidagi munosabatlarda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi tabiiy holdir. Bunday vaziyatda inson qadrini himoya qilish va yuksaltirish faqat kasaba uyushmalari orqali samarali amalga oshishi mumkin.

Shuningdek, kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning yana bir o'ziga xos jihati — uning universalligida namoyon bo'ladi. Ya'ni inson qadri faqat ish haqi yoki mehnat shart-sharoitlari bilan cheklanmaydi, balki insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari, ijtimoiy himoya tizimidan bahramand bo'lish darajasi bilan ham bog'liqdir. Kasaba uyushmalari o'zining keng qamrovli dasturlari va faoliyati orqali a'zolarini madaniy-ma'rifiy, huquqiy va siyosiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, kasaba uyushmalari orqali xodimlar huquqiy savodxonlikka ega bo'ladi, o'z huquq va majburiyatlarini anglaydi, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Bu jarayonning o'zi ham inson qadrini yuksaltirishning muhim ko'rinishidir.

Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning yana bir xususiyati — jamoaviy hamjihatlik va birdamlik orqali himoya qilishdir. Inson qadri jamiyatda o'ziga xos holda anglanishi va amalga oshirilishi uchun faqat individual emas, balki jamoaviy harakatlar ham zarur. Shu bois kasaba uyushmalari a'zolari o'rtasidagi birdamlik, hamkorlik, o'zaro yordam prinsiplari inson qadrini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichida inson qadrini yuksaltirish masalasi xalqaro darajada ham dolzarbdir. Xalqaro mehnat tashkiloti, BMT va boshqa nufuzli tuzilmalarning qaror va konvensiyalarida inson qadrini himoya qilish va yuksaltirish masalalari alohida o‘rin egallaydi. Shu jihatdan, kasaba uyushmalari tizimi xalqaro me‘yor va talablarga asoslanib ish olib borishi, milliy va global darajada inson qadrini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Xalqaro mehnat tashkiloti standartlarini qabul qilayotgan eng faol davlatlar safidan joy oldi. Sakkiz yil oldin ushbu tashkilotning O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjatlari soni 12 ta bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda 25 taga yetdi. [1; 3-4 b]

Inson qadrini yuksaltirish kasaba uyushmalari faoliyatida oddiy shior emas, balki ularning kundalik ish uslubi va amaliy yo‘nalishlarining o‘zagini tashkil qiladi. Masalan, ish joyida mehnat muhofazasi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, ishchi-xodimlarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish va dam olish huquqini ta‘minlash — bularning barchasi inson qadriga munosabatning amaliy ifodasidir.

Bundan tashqari, kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda ta‘lim va malaka oshirish masalalariga ham katta e‘tibor qaratadi. Chunki insonning mehnat bozorida o‘z qadrini saqlab qolishi va yuksaltirishi uning bilim va ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirishga bog‘liq. Kasaba uyushmalari turli malaka oshirish kurslari, seminar va treninglar tashkil etish orqali xodimlarning salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Inson qadrini yuksaltirish jarayonida kasaba uyushmalarining yana bir o‘ziga xos xususiyati – ularning davlat va jamiyat o‘rtasidagi vositachi sifatidagi rolidir. Kasaba uyushmalari davlat siyosatini amalga oshirishda faol ishtirok etadi, biroq ular to‘liq davlat tizimiga bog‘lanib qolmaydi. Bu esa ularning mustaqilligini ta‘minlaydi va inson qadrini himoya qilishda ob‘ektiv pozitsiyada turish imkonini beradi.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga oid qonunchilik hujjatlari loyihasini ishlab chiqishga Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha uch tomonlama respublika komissiyasini (Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Bandlik vazirligi, Ish beruvchilar konfederatsiyasi) ham jalb qilish taklif etildi. Bu mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilashda xodimlar manfaatini kafolatli himoya qilish bo‘yicha yangicha yondashuv bo‘ladi. [1; 5-6 b]

Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning zamonaviy xususiyatlaridan yana biri – raqamli texnologiyalardan foydalanishdir. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida kasaba uyushmalari o‘z faoliyatini onlayn platforma va raqamli xizmatlar orqali ham amalga oshirmoqda. Bu esa inson qadrini himoya qilishda samaradorlik va shaffoflikni ta‘minlaydi.

Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirish masalasi faqat iqtisodiy va huquqiy jihatlar bilan cheklanib qolmaydi, balki ma‘naviy va ijtimoiy sohalarni ham qamrab oladi. Inson qadri, avvalo, uning shaxsiy hayoti, oilasi, sog‘lig‘i va farovonligi bilan uzviy bog‘liq. Shu nuqtai nazardan kasaba uyushmalari nafaqat ish joyidagi munosabatlarni tartibga solish, balki insonning butun hayot tarzini qo‘llab-quvvatlash vazifasini ham bajaradi. Masalan, ular turli ijtimoiy imtiyozlar, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sport va madaniy tadbirlarni tashkil qilish orqali xodimlar va ularning oilalari uchun qulay sharoit yaratadi.

Inson qadrini yuksaltirishda kasaba uyushmalarining muhim vazifalaridan biri — ijtimoiy adolatni ta‘minlashdir. Jamiyatda turli qatlamlar vakillari o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tafovutlar mavjud. Bu tafovutlarni yumshatish va teng imkoniyatlar yaratish inson

qadrini yuksaltirishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Kasaba uyushmalari bu yo'nalishda davlat tashkilotlari va nodavlat tuzilmalar bilan hamkorlik qiladi, qonunchilik tashabbuslari bilan chiqadi, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

O'z saflarida sakkiz millionga yaqin a'zoni birlashtirgan kasaba uyushmalarining mehnat sohasidagi huquq va manfaatlarni himoya qilish, adolat va tenglik tamoyillarini ta'minlash borasidagi bir asrdan ziyod tajriba maktabi mamlakatimizda yangi jamiyat, yangi davlat barpo etishda biz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega. [1; 4-5 b]

Inson qadrini yuksaltirishning yana bir o'ziga xos xususiyati — mehnat bozorida tenglikni ta'minlashdir. Jins, yosh, millat yoki boshqa belgilaridan qat'iy nazar, har bir insonning mehnatini munosib baholash va uning huquqlarini himoya qilish kasaba uyushmalari uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Masalan, ayollar va yoshlar mehnati, nogironligi bor shaxslarning huquqlari ko'pincha e'tibordan chetda qolishi mumkin. Kasaba uyushmalari bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etadi.

Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishda jamoa kelishuvlari va jamoa shartnomalari muhim o'rin tutadi. Jamoa kelishuvlari mehnat munosabatlarini adolatli tartibga solish, xodimlar huquqlarini kafolatlash va ularning manfaatlarini muhofaza qilishning samarali usulidir. Shu bilan birga, jamoa shartnomalari inson qadriga munosabatni me'yoriy-huquqiy asosida mustahkamlaydi. Bu jarayonda ish beruvchi, xodim va davlat tashkilotlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mumkin bo'ladi.

Inson qadrini yuksaltirish jarayonida kasaba uyushmalarining ma'rifiy faoliyati ham alohida ahamiyatga ega. Chunki qadr masalasi faqat huquqiy yoki moddiy manfaatlar bilan belgilanmaydi, balki insonning ongi, dunyoqarashi va madaniy salohiyati bilan ham bog'liq. Shu bois kasaba uyushmalari turli ma'rifiy tadbirlar, konferensiyalar, kitob nashrlari va axborot kampaniyalari orqali inson qadrini yuksaltirishga hissa qo'shadi.

Inson qadrini yuksaltirishning yana bir jihati – xodimlarning faol ishtirokini ta'minlashdir. Inson qadri faqat uning himoya qilinishi bilan chegaralanmaydi, balki uning o'z hayoti va ish joyidagi qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishi bilan ham yuksaladi. Kasaba uyushmalari a'zolarining fikrini inobatga olish, ularni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilish, jamoaviy maslahatlar tashkil qilish orqali inson qadrini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek, kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirish demokratik prinsiplar bilan ham uzviy bog'liqdir. Inson qadri demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Kasaba uyushmalari ichki tuzilishida ham demokratiya prinsiplarini amalga oshirishga harakat qiladi: rahbarlarni saylash, hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash, a'zolarining teng huquqli ishtirokini yo'lga qo'yish — bularning barchasi inson qadriga munosabatning amaliy ko'rinishidir.

Inson qadrini yuksaltirish masalasi zamonaviy davrda yangi mazmun kasb etmoqda. Ilgari inson qadri asosan ish haqi, mehnat sharoiti kabi omillar bilan belgilangan bo'lsa, bugungi kunda axborot erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, ekologik xavfsizlik, gender tengligi kabi masalalar ham inson qadri bilan uzviy bog'liq holga kelgan. Kasaba uyushmalari ushbu yangi tendensiyalardan chetda qolmasdan, o'z faoliyatini ularga moslashtirmoqda. Masalan, atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish, ish joyida gender tengligini ta'minlash kabi yo'nalishlarda ham faoliyat yuritmoqda.

Inson qadrini yuksaltirish jarayonida kasaba uyushmalari milliy mentalitet va an'analarni ham hisobga oladi. Har bir jamiyatning o'z qadriyatlari, madaniy va ma'naviy

me'yorlari mavjud. Kasaba uyushmalari inson qadriga munosabatda umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda milliy xususiyatlarni ham uyg'unlashtirishi zarur. Bu esa inson qadrini nafaqat huquqiy yoki iqtisodiy, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham yuksaltirish imkonini beradi.

Shuningdek, kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirishda global tajribadan foydalanishi, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur. Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi, turli mintaqaviy tuzilmalar orqali tajriba almashish, qo'shma dasturlar amalga oshirish, xodimlar huquqlarini himoya qilishda umumiy standartlarni ishlab chiqish — bularning barchasi inson qadrini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

Kasaba uyushmalarining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi ortib bormoqda. Federatsiya tashabbusi bilan 2021-yilda Toshkent shahrida Markaziy Osiyo davlatlari kasaba uyushmalari kengashi tuzildi. 2023-yilda Samarqand shahrida Turkiy davlatlar kasaba uyushmalari tashkilotiga asos solindi. Federatsiya o'tgan yili Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasiga a'zo bo'lgani uning dunyodagi mavqeini yangi bosqichga olib chiqadigan tarixiy voqea bo'ldi. [1; 4-5 b]

Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirishdir. Ijtimoiy sheriklik – bu ish beruvchi, xodimlar va davlat organlari o'rtasidagi muvozanatli munosabatlar tizimi bo'lib, unda har bir ishtirokchi tomonning huquq va majburiyatlari aniq belgilanadi. Shu asosda kasaba uyushmalari xodimlar nomidan ish beruvchilar bilan muzokaralar olib boradi, jamoaviy shartnomalar tuzadi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu jarayonning o'zi inson qadrini yuksaltirishga xizmat qiladi, chunki xodim o'zining huquqlari qonunan kafolatlanganini his qiladi.

Inson qadrini yuksaltirishda mehnat muhofazasi va xavfsizlik masalalari ham alohida ahamiyatga ega. Chunki inson hayoti va sog'ligi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Mehnat jarayonida turli xil xavf-xatarlar mavjud bo'lib, ularni oldini olish, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish kasaba uyushmalari uchun asosiy vazifalardan biri sanaladi. Ular bu yo'nalishda davlat organlari, sanitariya xizmatlari va ish beruvchilar bilan hamkorlikda turli dasturlarni amalga oshiradi. Shu orqali ishchi-xodimlar hayoti va sog'ligi muhofaza qilinadi, inson qadri amalda yuksaladi.

Keyingi yillarda 500 mingga yaqin xodimning qonuniy huquqlari himoya qilindi, ularning foydasiga 267 milliard so'm undirib berildi. Ishdagi baxtsiz hodisalar tufayli jabrlangan 1 ming nafar xodimga 35 milliard so'm tovon puli to'lab berilgan. Nohaq bo'shatilgan 13 ming xodim ishga tiklangan. [1; 3-4 b]

Co'nggi 5 yilda kasaba uyushmalari sa'y-harakatlari bilan qariyb 500 ming nafar fuqaroning huquqlari tiklangan, korxona va muassasalarda 20 mingga yaqin jamoatchilik nazorati va gender tenglikka oid audit tadbirlari o'tkazilgan, mehnat muhofazasi yuzasidan 21 mingdan ortiq kamchilik bartaraf etilgan [2; 1 b]

Kasaba uyushmalarining ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishdagi roli ham muhim hisoblanadi. Inson qadri uning turmush sharoiti, daromad manbalari va ijtimoiy kafolatlari bilan ham belgilanadi. Shu bois kasaba uyushmalari turli imtiyozlar, nafaqa, moddiy yordam va kompensatsiyalar berishda tashabbuskor bo'ladi. Ishdan ayrilgan yoki mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar uchun ijtimoiy himoya mexanizmlarini ishlab chiqish ham inson qadrini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – xodimlarning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashdir. Inson qadri uning jamiyatdagi mavqei, faolligi va ta'sir darajasi bilan ham o'lchanadi. Shuning uchun kasaba uyushmalari turli yig'ilishlar, forumlar, seminarlar va jamoat tadbirlariga xodimlarni jalb qiladi. Bu orqali ular o'z fikrini erkin bayon qilish, qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat esa inson qadrini yuksaltirishning amaliy ko'rinishi hisoblanadi.

Shu bilan birga, kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning o'rni katta. Chunki inson qadri faqat moddiy ne'matlar bilan belgilanmaydi, balki uning ma'naviy dunyosi, axloqiy qiyofasi va ijtimoiy mas'uliyati bilan ham belgilanadi. Shu bois kasaba uyushmalari turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qiladi, kitoblar, jurnallar chop etadi, xodimlar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish va ma'naviy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Inson qadrini yuksaltirish masalasi kasaba uyushmalarida rahbar va a'zo munosabatlari orqali ham namoyon bo'ladi. Agar tashkilot rahbarlari a'zolarining fikrini inobatga olsa, ularning talab va ehtiyojlarini o'rganib, amaliy qadamlar tashlasa, inson qadri yuksaladi. Ammo aks holda, ya'ni rahbarlar a'zolardan uzoqlashsa, shaffoflik yo'qolsa, inson qadrlanishi sustlashishi mumkin. Shu bois kasaba uyushmalarida demokratik boshqaruv, shaffof hisobdorlik va mas'uliyat prinsiplariga qat'iy rioya etilishi lozim.

Zamonaviy globallashuv jarayonida inson qadrini yuksaltirishning yana bir o'ziga xos jihati – ekologik barqarorlik bilan bog'liqdir. Inson qadri nafaqat ish joyida, balki uni o'rab turgan tabiiy muhitda ham namoyon bo'ladi. Chunki sog'lom va toza muhit – inson hayoti uchun eng muhim shart. Shuning uchun kasaba uyushmalari ekologik xavfsizlik, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalarida ham o'z pozitsiyasiga ega bo'lib, turli tashabbuslarni ilgari suradi.

Inson qadrini yuksaltirishning yana bir muhim jihati – gender tengligini ta'minlashdir. Ayollar mehnati va ularning huquqlarini himoya qilish masalasi hanuz dolzarbligini yo'qotmagan. Ayrim sohalarida ayollar mehnati arzon baholanishi, ular rahbarlik lavozimlariga kam tayinlanishi kuzatiladi. Shu sababli kasaba uyushmalari gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqishi, ayollarning mehnat bozoridagi mavqeini mustahkamlashi lozim. Bu ham inson qadrini yuksaltirishning muhim jihatidir.

Kasaba uyushmalari tizimida yoshlarni qo'llab-quvvatlash ham inson qadrini yuksaltirishning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Yoshlar mehnat bozoriga yangi qadam qo'yayotgan bo'lgani uchun ular ko'pincha huquqiy va moddiy jihatdan himoyaga muhtoj bo'ladi. Kasaba uyushmalari ular uchun alohida dasturlar ishlab chiqishi, malaka oshirish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yaratishi lozim.

Prezident Sh.Mirziyoev tomonidan kasaba uyushmalari faollari bilan uchrashuvda kasaba uyushmalari ko'pgina sohalarida ijtimoiy sheriklikni kengaytirish, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxona va tashkilotlarda xodimlar, ayniqsa, norasmiy tarzda band bo'lgan fuqarolar, xotin-qizlar va yoshlarning kasb va mehnatga oid huquqlarini ta'minlash tizimini kuchaytirish, umuman, norasmiy bandlikka chek qo'yish bo'yicha tashabbuslari bilan tanishib, soha xodimlari butun xalqimiz qatori o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'yib yashayotganini ta'kidladilar.

Ijtimoiy davlatning yangi modelini yaratishda “Kuchli kasaba uyushmalari – kuchli jamiyat asosi” degan tashabbus asosida kasaba uyushmalari bu jarayonda oldingi safda bo'lishini aytib o'tdilar. Kasaba uyushmalari faoliyatini yanada rivojlantirish va mehnat munosabatlarini yaxshilash bo'yicha kelgusi vazifalarni belgilab olish taklifini bildirdilar. [1; 5-11 b].

Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning yana bir o'ziga xos xususiyati – mehnat munosabatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlashdir. Har qanday jamiyatda inson qadri uning qonun oldidagi tengligi va huquqlarining ta'minlanishi bilan belgilanadi. Shuning uchun kasaba uyushmalari turli qonunlar, me'yoriy hujjatlar va xalqaro konvensiyalarning amalda qo'llanishini ta'minlash uchun kurashadi. Ular parlament va davlat organlariga takliflar kiritadi, qonunchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, mehnat munosabatlarida adolatli tizim shakllanishiga hissa qo'shadi.

Inson qadrini yuksaltirishning o'ziga xos jihatlaridan biri – jamoaviy birdamlik va o'zaro hamkorlikda namoyon bo'ladi. Agar xodimlar alohida-alohida harakat qilsa, ularning manfaatlari to'liq ta'minlanmasligi mumkin. Biroq kasaba uyushmalari orqali ularning ovozi birlashadi, kuch va imkoniyatlari ortib, inson qadri jamoaviy holda himoya qilinadi. Bu holatda inson qadri nafaqat yakka shaxsning huquqi, balki butun jamoaning qudrati sifatida namoyon bo'ladi.

Sog'lom ijtimoiy muhit yaratish ham inson qadrini yuksaltirishning yana bir muhim jihatidir. Insonning qadri uning ish sharoiti va turmush darajasi bilan cheklanmaydi. Balki jamoadagi munosabatlar, hamkorlik va o'zaro hurmat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kasaba uyushmalari turli sport musobaqalari, madaniy kechalar va ijtimoiy tadbirlar orqali jamoada sog'lom muhit shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda inson o'zini qadrlangan, hurmat qilingan va jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladi.

Inson qadrini yuksaltirish jarayonida axborot erkinligi va ochiqlik ham muhim ahamiyatga ega. Agar xodim o'z huquq va majburiyatlarini bilmasa, qonunchilikdagi o'zgarishlardan xabardor bo'lmasa, u o'z qadrini to'liq anglay olmaydi. Shu sababli kasaba uyushmalari axborot texnologiyalaridan keng foydalanishi, onlayn platformalar, veb-saytlar, mobil ilovalar orqali a'zolari xabardor qilib borishi lozim. Bu ham inson qadrini yuksaltirishning zamonaviy xususiyatlaridan biridir.

Shuningdek, inson qadrini yuksaltirishda xalqaro hamkorlik va tajriba almashish ham muhim ahamiyatga ega. Turli mamlakatlarda kasaba uyushmalari faoliyati turlicha tashkil etilgan bo'lib, ularning tajribalarini o'rganish, ijobiy natijalarni milliy tizimga tatbiq etish orqali inson qadrini yuksaltirishda yangi qadamlar qo'yish mumkin. Masalan, Yevropa davlatlarida ish joylaridagi xavfsizlik, Amerikada ish haqi va ijtimoiy kafolatlar, Yaponiyada mehnat intizomi va jamoaviy madaniyat inson qadrini yuksaltirishda muhim tajriba sifatida ko'rsatilmoqda.

Inson qadrini yuksaltirish masalasi faqat iqtisodiy yoki huquqiy emas, balki falsafiy ma'noda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki inson qadri – bu uning moddiy va ma'naviy olamining uyg'unligida, shaxsiy erkinligi va ijtimoiy mas'uliyatida namoyon bo'ladi. Kasaba uyushmalari aynan shu uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ular insonning moddiy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, uning ma'naviy qiyofasini ham yuksaltirishga qaratilgan ishlarni amalga oshiradi.

Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning zamonaviy xususiyatlaridan biri – barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlikdir. Bugungi kunda

iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik bir-biridan ajralmas tushunchalarga aylangan. Inson qadri ham ana shu uch yo'nalishda uyg'un tarzda yuksalishi kerak. Shu bois kasaba uyushmalari ishlab chiqarish jarayonida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ishchilarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish va iqtisodiy samaradorlikka erishishni bir vaqtda ta'minlaydigan mexanizmlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- inson qadrining jamoaviy himoya orqali ta'minlanishi;
- mehnat munosabatlarida adolatli muvozanat yaratilishi;
- ijtimoiy himoya va barqarorlikka e'tiborning yuqoriligi;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarning keng qamrovliligi;
- demokratik boshqaruv va shaffoflikka rioya etilishi;
- gender tengligi va yoshlarni qo'llab-quvvatlash;
- raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish;
- milliy an'analar bilan umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish;
- xalqaro tajribadan foydalanish.

Demak, kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u nafaqat xodimlar huquqlarini himoya qilish, balki ularning moddiy va ma'naviy hayotini boyitish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan kasaba uyushmalari zamonaviy fuqarolik jamiyatining ajralmas instituti sifatida inson qadrini yuksaltirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoev 2025- yil 17- oktabr kuni kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvda kasaba uyushmalari faoliyati to'g'risida fikr bildirib, "Birgalikda boshlagan ishlarimiz har bir mehnat jamoasi, har bir xodim va uning oilasi uchun manfaatli bo'layotganiga yana bir bor amin bo'ldim. Bundan buyon ham "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oya Yangi O'zbekistondagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi" deya ta'kidladilar, [1; 5 b]

Umumiy xulosalar:

1. Bugungi kunda Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishning zamonaviy xususiyatlaridan biri – barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlikdir. Zamonaviy yondashuvlarda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik bir-biridan ajralmas tushunchalarga aylangan.

2. Globallashuv sharoitida inson qadrini yuksaltirishda xalqaro hamkorlik va tajriba almashish ham muhim ahamiyatga ega. Turli mamlakatlarda kasaba uyushmalari faoliyati turlicha tashkil etilgan bo'lib, ularning tajribalarini o'rganish, ijobiy natijalarni milliy tizimga tatbiq etish orqali inson qadrini yuksaltirishda yangi qadamlar qo'yish mumkin.

3. Kasaba uyushmalari tizimida inson qadrini yuksaltirishda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning o'rni katta. Chunki inson qadri faqat moddiy ne'matlar bilan belgilanmaydi, balki uning ma'naviy dunyosi, axloqiy qiyofasi va ijtimoiy mas'uliyati bilan ham belgilanadi. Shu bois kasaba uyushmalari turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qiladi, kitoblar, jurnallar chop etadi, xodimlar orasida ma'naviy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

4. Ijtimoiy tasnif nuqtai nazaridan inson qadrini yuksaltirish jamiyatda tenglik, adolat, huquq va erkinlik kabi tamoyillarning ta'minlanishi orqali namoyon bo'ladi. Inson qadrini

himoya qilish – bu inson huquqlarini ta'minlash, uning ijtimoiy hayotda faol ishtirokini yo'lga qo'yish, shaxs erkinligi va jamiyat mas'uliyati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash demakdir.

5. Kasaba uyushmalari tarixiy jarayonda fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri sifatida shakllanib kelgan. Ular avvalo ishchi-xodimlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan boshlangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan keng qamrovli ijtimoiy va ma'naviy funksiyalarni bajaruvchi tizimga aylandi. Inson qadrini yuksaltirishdagi o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, kasaba uyushmalari inson manfaatlarini yakka tartibda emas, balki jamoaviy shaklda himoya qiladi. Bu esa shaxsiy qadr va sha'nini jamiyatning umumiy qadriyatlari tizimida mustahkamlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning respublika kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o'tkazilgan uchrashuvda so'zlagan nutqi", 2025-yil 17-oktabr, Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 11-noyabr -O'zbekiston kasaba uyushmalari kun va kasaba uyushmalarining 120 yilligi munosabati bilan tabrigi, 2025 yil 11- noyabr, Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni. 2019- yil 6-dekabr.
4. Mirziyoev Sh, "Yangi O'zbekiston. Taraqqiyot strategiyasi" kitobi, 2023-yil, Toshkent
5. Rafiqov Q, "Vatan va millat qayg'usi" kitobi, 2020-yil, Toshkent
6. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2020-2025- yillardagi faoliyati yuzasidan axborotnoma.
7. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashining 2020-2025- yillardagi faoliyati bo'yicha ma'lumotlar.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).